



SUYIMA G'ANIYEVANING “KO‘NGIL SHAMCHIROG‘I” ASARIDA
ILM-FAN VA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUV

Davlatova Shahinabonu Murodali qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti Turkiya tarixi yo‘nalishi

Turk-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi

davlatvashahina@gmail.com

Ilmiy rahbar: A.H. Fayzullayev

Annotatsiya: Adabiyotshunos olimning shaxsiy hayoti va ilmiy faoliyati ko‘pincha bir-biridan ajralmagan holda rivojlanadi. Ayniqsa, Suyima G‘aniyeva kabi yirik adabiyotshunoslardan hayot yo‘lini o‘rganar ekanmiz, bu bog‘liqlik yanada ravshan ko‘zga tashlanadi. Uning “Ko‘ngil shamchirog‘i” nomli asari – bu nafaqat adabiy xotiralar to‘plami, balki o‘z davrining ilmiy muhitini, adabiyotga sadoqatni, fidoyilikni aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada G‘aniyevaning mazkur asari asosida uning ilm-fanga munosabati, Navoiyshunoslikdagi xizmatlari va hayotiy prinsiplariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Suyima G‘aniyeva, Ko‘ngil shamchirog‘i, Alisher Navoiy, Navoiyshunoslik, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, ilmiy metodologiya, sufi g‘oyalar, ayol olima, adabiy tahlil.

Suyima G‘aniyeva o‘zbek adabiyotshunoslida, xususan, Navoiyshunoslik sohasida salmoqli o‘rin egallagan olma hisoblanadi. U ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy merosini ilmiy asosda o‘rganish, matnshunoslik va tarixiy-adabiy tahlil usullarini shakllantirish borasida muhim ishlar amalga oshirgan. “Ko‘ngil shamchirog‘i” asari G‘aniyevaning ilmiy faoliyati, uslubiy yondashuvlari va Navoiyshunoslik sohasidagi izlanishlari haqida muhim ma’lumotlar beruvchi manba hisoblanadi. Ushbu maqolada ushbu asar tahlil qilinib, u orqali G‘aniyevaning



ilmiy-metodologik yondashuvi, matnshunoslikdagi amaliy faoliyatni va o‘zbek adabiyotshunosligiga qo‘sishgan hissasi yoritiladi.

“Ko‘ngil shamchirog‘i” – bu adabiy xotiralar, estetik tafakkur va ilmiy kuzatuvlar uyg‘unlashgan kitobdir. Suyima G‘aniyeva o‘z asarida bolalik xotiralari, ustozlari, ilk ilmiy izlanishlari, Alisher Navoiyga bo‘lgan chuqur hurmati haqida yozadi. Ushbu xotiralar nafaqat hissiy jihatdan, balki tarixiy va madaniy kontekstda ham qadrlidir. Ayniqsa, G‘aniyevaning Navoiyshunoslik sohasiga qanday kirib kelgani, bu yo‘ldagi izlanishlari, sabr-toqati yosh tadqiqotchilar uchun ibratdir.

Asarda G‘aniyeva o‘zining Alisher Navoiy ijodiga ilk bor qanday mehr qo‘yganini samimiylashtirishga qiladi. Ustozlarining — Oybek, G‘afur G‘ulom kabi adiblarning ta’siri, ilmiy tahlillarga bo‘lgan talabchanlik, ayniqsa “Majolis un-nafois”ni nashrga tayyorlash jarayonidagi qiyinchiliklar bu asarda jonli ifodalangan. Bu xotiralar G‘aniyevaning ilmiy faoliyatiga hayotiy, insoniy nuqtai nazar bilan qarash imkonini beradi¹.

Asardagi ayol olma timsoli: Kitobda G‘aniyevaning shaxsiy hayotiy tajribalari, ayol sifatida fan sohasida o‘z o‘rnini topishga intilishi, erkaklar hukmron sohada mustahkam pozitsiyani egallashi ko‘rsatiladi. Bu holatlar gender nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. “Ko‘ngil shamchirog‘i”da nafaqat olma, balki mehribon ona, sadoqatli shogird, xalqparvar ziyoli obrazi ham ochiladi.

“Ko‘ngil shamchirog‘i” asarining mohiyati va uslubiy yondashuvi: “Ko‘ngil shamchirog‘i” asari garchi xotira janrida yozilgan bo‘lsa-da, u klassik xotiraviy adabiyot namunalaridan farq qiladi. Unda muallif o‘z hayotini shunchaki voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ilm-fan, ma’naviyat, axloq va badiiy tafakkur bilan yo‘g‘rilgan jarayon sifatida tasvirlaydi. G‘aniyeva har bir epizodda o‘zi o‘rgangan darsni, o‘zi kechirgan ruhiy holatni, o‘sha paytdagi adabiy muhitni tahlil qiladi.

Matnshunoslikda yangicha yondashuv: Suyima G‘aniyeva Navoiy asarlarini ilmiy-tanqidiy nashrga tayyorlashda - turli qo‘lyozmalarni solishtirish orqali tanqidiy matn yaratish, matnning leksik, stilistik va fonetik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish,

¹ <https://web.archive.org/web/20210112040403/https://arboblar.uz/uz/people/ganieva-sujima-2>



izohli va tushuntirishli nashrlarni tayyorlash uslubini ilmiy asosda yo‘lga qo‘ydi². Bu metodlar o‘zbek matnshunosligida ilgari bunday chuqur tahlil shaklida keng tatbiq qilinmagan edi. “Ko‘ngil shamchirog‘i”da u o‘z ilmiy izlanishlari jarayonida shakllantirgan Navoiyshunoslik maktabi haqida gapirib o‘tadi. Bu maktab: ilmiy izchillik, matnga hurmat va manba asosida fikrlash tamoyillariga asoslangan, yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishga yo‘naltirishda metodik tayanch bo‘lgan. Adabiyestetik tahlilga chuqurlik kiritgan. U tasviriy vositalar, ramzlar va timsollarni tahlil qilishda, majoziy tafakkurni tushuntirish, sufi g‘oyalar va falsafiy qatlamlarni olib berishda yangicha, zamonaviy qarashlarni ilgari surgan³.

“Ko‘ngil shamchirog‘i”da adabiyot tarixiga ayol tadqiqotchi nigohi orqali yondashuv ham yangilik sanaladi. U ilmiy izlanishlar davomida duch kelgan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ilmiy mardlikni o‘z hayoti misolida ko‘rsatgan. Bu esa boshqa ayol tadqiqotchilar uchun ilhom manbaiga aylangan. Suyima G‘aniyeva “Ko‘ngil shamchirog‘i”da ko‘plab tarixiy voqealar, adabiy anjumanlar, ustoz-shogird munosabatlari haqida hikoya qiladi. U o‘z xotiralarida o‘quvchiga saboq bermoqchi bo‘lmaydi, balki misollar orqali hayot haqiqatini tushuntiradi. Asarning bu jihatni uni didaktik emas, balki dilga yaqin, mutolaaga mos asarga aylantiradi.

Ilmiy-Metodologik Yondashuv: Suyima G‘aniyeva “Ko‘ngil shamchirog‘i” asarida o‘z ilmiy izlanishlari haqida atroflicha to‘xtalib o‘tadi⁴. Bu asar orqali uning ilmiy metodologiyasi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Birinchidan, u tarixiy-filologik yondashuvdan keng foydalangan. Navoiy asarlarini o‘rganishda davr ruhini, matnlarning tarixiy kontekstini va so‘zlarning asl ma’nosini aniqlashga harakat qilgan. U asarlarning turli qo‘lyozma nusxalarini taqqoslab, ishonchli matn yaratishga intilgan.

Ikkinchidan, G‘aniyeva o‘z ilmiy tadqiqotlarida manba asosida ishlashga katta ahamiyat bergen. Har bir fikrini dalillar bilan asoslashga harakat qilgan va tarixiy manbalarni tahlil etgan.

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/suyima-g-aniyeva-ko-ngil-shamchirog-i-2012>

³ G‘aniyeva, Suyima. Ko‘ngil shamchirog‘i. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012.

⁴ . G‘aniyeva, S. Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. Toshkent, 1991.



Uchinchidan, u adabiy asarlarning badiiy va ma’naviy qatlamlarini o’rganishga e’tibor qaratgan. Tasviriy vositalar, ramzlar, sufiyona g’oyalar va axloqiy-falsafiy mazmunlarni chuqur tahlil qilgan.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, Suyima G‘aniyevaning “Ko‘ngil shamchirog‘i” asari – bu shunchaki xotira emas, balki O‘zbek adabiyoti va ilm-fan tarixini aks ettiruvchi muhim hujjatdir. U orqali biz faqat bir olimaning hayot yo‘lini emas, balki butun bir davrning ilmiy va ma’naviy muhitini anglaymiz. Suyima G‘aniyevaning “Ko‘ngil shamchirog‘i” asari adabiyotshunoslikda muhim yangiliklar kiritgan ilmiy ish sifatida o‘zining o‘rni va ahamiyatini saqlab qoladi. U Navoiy asarlarini ilmiy-tanqidiy tahlil qilishda yangi metodologiyalarni joriy etib, matnshunoslikka va adabiyotshunoslikka chuqur ta’sir ko‘rsatdi. G‘aniyeva asarlaridagi estetik, sufi g’oyalar va falsafiy qatlamlarni tahlil qilish orqali Navoiy ijodiga yangi yondashuvni taqdim etdi. Uning ilmiy izlanishlari yosh tadqiqotchilar uchun namunali yo‘l bo‘lib, adabiyotshunoslikda ayol olimaning rolini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asar, nafaqat adabiyotshunoslik sohasida, balki umumiy ilmiy tafakkurda ham yangi metodologik qarashlarni yaratishga yordam berdi. Shunday qilib, G‘aniyevaning “Ko‘ngil shamchirog‘i” asari o‘zining ilmiy va badiiy qiymati bilan adabiyotshunoslik tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Mazkur asarni chuqur o‘rganish, G‘aniyevaning ilmiy faoliyatini tushunishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yosh adabiyotshunoslар uchun bu asar ibrat va ilhom manbaidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘aniyeva, Suyima. Ko‘ngil shamchirog‘i. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012.
2. G‘aniyeva, S. Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. Toshkent, 1991.
3. Rasulova, M. “Suyima G‘aniyeva – matnshunos olma.” O‘zbek tili va adabiyoti, 2020-yil, №3.
- 4.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/suyima-g-aniyeva-ko-ngil-shamchirog-i-2012>
- 5.<https://web.archive.org/web/20210112040403/https://arboblar.uz/uz/people/ganiev-a-sujima-2>